

ERKIN FIKRLASH VA KAMOL TOPISHDA KONSTITUTSIYANING ROLI

Jurayev Sherali Soibnazar o'g'li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining "inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" - deb nomlangan bo'limi tahlil qilingan. Inson huquqlari va axloqiy munosabatlari jahon miqyosidagi shaxsiy huquq va erkinliklarga oid ayrim normalar keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: Inson qadri, shaxsiy huquq, baxt, kamolot, Fozil shahar,adolat.

ABSTRACT

This article analyzes the section of the newly adopted Constitution of the Republic of Uzbekistan entitled "fundamental rights, freedoms and duties of man and citizen". Some norms of human rights and moral relations related to personal rights and freedoms at the global level are cited.

Keywords: Human dignity, personal rights, happiness, perfection, Fazil shahar, justice

KIRISH

Dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari toboro murakkablashayotgan vaqtida yurtimizda olib borilayotgan islohatlarning tub maqsadi shunday tahlikali vaziyatga duch kelmaslik uchun qilinayotgan harakatdir. Bugungi kunda O'zbekistonda "Inson qadri oliy haqiqatdir" degan ezgu g'oyani amalga oshirish maqsadida har bir sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarga hamohang tarzda mamlakatimiz Bosh qomusi hisoblangan Konstitutsiyamiz ham 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan umumxalq referendumida yangi tahrirda qabul qilindi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiya xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganini ifoda etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2023 yil 16-noyabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishda "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi", degan haqqoniy e'tirof alohida ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g'oyasi, maqsadi va amali- har bir moddasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan inson qadrining oliy maqsadini ro'yobga chiqarish maqsadida xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analarini o'zida to'la mujassamlashtirgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yangilangan Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekistonning yagona xalqi:inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligidan rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda har bir moddaning qabul qilinishida aholi vakillar mas'ulyat bilan ishtirok etishlari kerak ekanligini tushuntirish ishlarni yanada jadallashtirish kerak ekanligini aytib o'tmoqchimiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi" degan norma belgilab qo'yilgan. Bu norma timsolida O'zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume'tirof etilgan shaxsiy huquq va erkinliklar alohida himoya qilinadi.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston – inson sha'ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo'lishi, xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi, "odamlar tashvishi bilan yashash", xalqimizning qonuniy talab-

istaklari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi, barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institatlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g'oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyamizning avvalgi tahriridan farqli o'laroq, uning yangi tahririning asosiyligi g'oyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni, inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlash, ilgari mavjud bo'lgan "davlat – jamiyat – shaxs" paradigmasini yangi: "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan shaxsiy huquq va erkinliklarga oid yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat'iy hamda izchil tatbiq etilishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug'lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz".

Yangilangan Konstitutsiya normalariga sinchiklab nazar tashlansa, unda xalqaro standartlar va ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligidagi mavjud normalar o'z ifodasini topganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Xususan, Asosiy qonunda inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli ekanligini belgilovchi yangi norma kiritildi. Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada insonning qadr-qimmatiga, uning shaxsiy hayoti va unga nisbatan har qanday zo'ravonliklardan himoya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Ya'ni, insonga nisbatan har qanday shafqatsiz munosabat yoki qiynoqlarga yo'l qo'ymasligi nazarda tutilgan. Bunda davlat organlarining inson huquqlarini buzishga uringan har qanday harakatlari qonun oldida javobgarlikka tortilishi mustahkamlangan.

Shuningdek, aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerakligi, hamda hech bir shaxs o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi ham qayd etilganligini ta'kidlash joiz.

Yangi tahrirdagi konstitutsianing 21-moddasida “Har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning rozilgisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas” – degan qonun bilan insonning kamolati qatiy nazorat qilingan bo’lsa, O’rta asr Sharq faylasufi Abu Nasr Forobiy dunoqarashiga ko’ra “*baxt bu insoniyatning martabasi bilan bog’liq tushuncha hisoblanadi. Insoniyatning nafsi va saodati esa uning fikriga ko’ra oqil nafs va uning fazilatlarini, shuningdek g’azabga moil bo’lgan nafsn ni o’ziga bo’ysindirishi kerak. G’azab nafsining asosiy fazilati bu shijoatdir. Shaxvoniy nafsi esa uning asosiy fazilati bu- Iffatdir. Inson ijobiy fazilatlarga ergashsa u saodatga yetishishi mumkin.*

Johil shahar esa Farobiy fikricha Fozil shaharning aksi bo’lib, uning ahli ham saodat va baxtni talab qiladi lekin ularda g’azab, shaxvoniyat birinchi o’rinda turib shahar fosixlar shahriga aylanadi.Uning ahli esa saodatga intilgani bilan lekin ularning amalga oshirgan fe'l atvori baxtga qarama-qarshi turadi” degan fikrlari bilan jamiyatning ma’naviy darajasiga o‘z hissasini qo’shganligi ko’rish mumkin.

Kamolotning yuqori cho‘qqisiga erishgan jamiyatlarda kasb-hunarni ozodona tanlash imkoniyati bor. Bu yerda yakkahokimlik yo‘q bo‘lib, haqiqiy ozodlik va tenghuquqlik hukmronlik qiladi. Bunday shaharlarning aholisi o‘z boshlig‘ini saylaydi, ammo uni har qachon hokimiyatdan mahrum qilishi ham mumkin. Bunday shaharlarning boshliqlari o‘z faoliyatlaridaadolatlilik, teng huquqlik va umumiy farovonlik qoidasidan kelib chiqadilar¹. Boshliq – bu o‘ziga xos muallim bo‘lib, o‘z o‘quvchilarini bilim olishga va baxt-saodatga erishish yo’llarini o‘zlashtirishga o‘rgatadi. Ammo barcha talablarni bir kishida mujassamlashtirish qiyin, shuning uchun guruh tomonidan bo‘ladigan boshqaruvni tashkil etish mumkin. Bunday holatda jamiyatning har bir a’zosi ushbu xususiyatlardan birortasini mujassamlashtirmog‘i lozim bo‘ladi.

Konstitutsianing 21-moddasidagi “Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minalash maqsadida zarur bo’lgan doirada chekhanishi mumkin” degan bandni tahlilga tortsak, Nikolay Makiavellining “Hukmdor” asarida “siyosat” tushunchasiga aniqlik kiritib, uni ijtimoiy mazmun-mohiyatini ochib berish va tadqiq etish bilan bir qatorda monarxiya, respublika va davlatning boshqa shakllarini tadqiq etib, jamiyat va davlatni bir-biridan ajratgan holda tahlil qilgan. Davlatlar bilan ularning shaxsiy manfaatlari birdek harakat qilishi g‘oyasiga N.Makiavelli tomonidan asos solingan. Faylasuf fikricha, “Davlatning o‘zi

¹ Qarang:Forobiy Majmut at-rasil al-hukuma.O’z FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida arab tilida saqlanayotgan 2385raqamli ostidagi qo’lyozma 2a sahfasi.

inson bo‘lib, unga xizmat qilishning o‘zi ham inson hayotining asl maqsadi, tub mohiyati va ezgu baxt-saodatini ta’minlaydi. Davlat – doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi siyosiy tashkilot. Davlatning vujudga kelishi qarama-qarshi kuchlar harakatining natijasidir. Makiavelli “Hukmdor” asarida xokimiyatni egallash, boshqarishning turli usul va vositalari, ideal hukumdar qiyofasi haqida yaxlit qarashlar aks ettirilgan. Shuningdek, bu asarda muallif korrupsiyaning kelib chiqish ildizlari haqida ham fikr yuritganligi e’tiborga molik, faylasuf fikricha, “Korrupsiyan ham yo‘talga o‘xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o‘tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin”. Bu fikr bugungi kundagi ayni shu yo‘nalishdagi muammolarni hal qilishda muhim o‘rinni egallaydi deb bemalol aytaolamiz.

Davlat va jamiyatning pirovard maqsadi bo‘lgan umumiy baxt-saodatga erishish muammosi Farobiy ta’limotida muhim o‘rin tutadi. Bunga yo‘l – ilm-fan va ta’lim-tarbiyadir. Haqiqiy baxt-saodatga bilimlarni egallash yo‘li vositasida erishiladi. Haqiqiy baxtga shundagina erishiladiki, qachonki, har qanday yomonlik bartaraf qilinib, kishining ruhi va aqli o‘zining mohiyatlarini va barcha xayrli, ezgu ishlarni bilishda eng yuqori saviyaga erishib-abadiylikka dahldor bo‘lgan dunyoviy aql bilan qo‘shilib ketsa.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 21-fevraldaggi O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g’risida PF-37-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/6811936>
3. Пўлатова, Д. А. (2024). ГЛОБАЛ ТАҲДИДЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 457-466.
4. Akmalovna, P. D. (2024). FEATURES OF THE CONCEPT OF MORAL IMPROVEMENT OF PERSONALITY OF CENTRAL ASIA THINKERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(2), 244-251.
5. Po‘Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.

6. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN'ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.
7. Dilshodbek, U. (2025). THE IMPORTANCE OF THE VIEWS OF CHILDREN'S EDUCATION AND MORAL VIRTUES IN THE WORKS OF IBN SINA TODAY. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 3(02), 41-44.
8. Uralov, D. (2024). FAROBIY FALSAFASIDA INSON SHAXSI VA AXLOQIY FAZILATLARI TO 'G 'RISIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(11), 300-304.